

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 3



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
3-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 3

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 3

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Uy xo'jaliklarining o'ziga xos xususiyatlari va aholi farovonligini oshirishda xorijiy tajribalar

Safarova Zulfizar Zafar qizi

Зарубежный опыт повышения характеристик домохозяйств и благосостояния населения

Сафарова Зулфизар Зафар кизи

Foreign experiences in increasing the characteristics of households and the welfare of the population

Safarova Zulfizar Zafar kizi

Received: June 11, 2025 Revised: June 13, 2025 ■ Accepted: June 20, 2025 ■ Published Online: June 30, 2025

- **Annotatsiya.** Mazkur maqolada ushbu davlatlarning ilg'or tajribalari tahlil qilinadi, uy xo'jaliklarining o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi hamda ularning aholi farovonligiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni qo'llash imkoniyatlari va istiqbollari ko'rib chiqiladi.
- **Kalit so'zlar:** uy xo'jaligi, inson kapitali, oilaviy byudjet, oila daromadi, daromad darajasi, yashash sifati, xarajatlar, oziq-ovaqt xarajatlari, transport xarajatlari .
- **Аннотация.** В данной статье анализируется передовой опыт указанных стран, изучаются особенности домохозяйств и раскрывается их влияние на повышение благосостояния населения. Также рассматриваются возможности и перспективы применения данного опыта в условиях Узбекистана.
- **Ключевые слова:** домохозяйство, человеческий капитал, семейный бюджет, семейный доход, уровень дохода, качество жизни, расходы, расходы на питание, транспортные расходы .
- **Abstract.** This article analyzes the advanced experiences of the mentioned countries, examines the distinctive features of households, and highlights their impact on improving population welfare. It also explores the opportunities and prospects for applying these experiences in the context of Uzbekistan.
- **Key words:** household, human capital, family budget, family income, income level, quality of life, expenses, food expenses, transport expenses

KIRISH

Zamonaviy davrda har qanday davlatning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyotida uy xo'jaliklarining o'rni tobora ortib bormoqda. Uy xo'jaligi – bu iqtisodiy va ijtimoiy birlik bo'lib, u oilaviy daromadni shakllantirish, iste'molni

boshqarish, jamg'arma qilish va iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish orqali mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir qiladi. Aholi farovonligi darajasini belgilovchi asosiy mezonlardan biri aynan uy xo'jaliklarining moliyaviy mustahkamligi, turmush sharoiti va iqtisodiy faolligidir.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki,

uy xo'jaliklarini iqtisodiyotning faol subyekti sifatida ko'rib, ularga zarur infratuzilma, bilim va moliyaviy resurslar yaratib berish orqali aholining umumiy turmush darajasini sezilarli darajada oshirish mumkin. Jumladan, Germaniya davlatida uy xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos yondashuvlari mavjud bo'lib, ularning har biri iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy barqarorlikka xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot jarayonida "uy xo'jaligi" va uning bandlikni ta'minlashdagi tutgan o'rni haqidagi qarashlarning uzoq davrli evolyutsiyasi o'rganilgan. Antik davr mutafakkiri Ksenofont (eramizdan oldingi 430-355 yillar) ilk marta uy xo'jaligi haqida «Uy tuzilishi» asarida to'xtalib o'tgan. Uy xo'jaligini u mazmun jihatidan ikki qismga bo'lgan: birinchisi - uy xo'jaligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi - qishloq xo'jaligini tashkil etadi. Uy xo'jaligiga birinchi bo'lib fan sifatida qaragan Ksenofont uy xo'jaligini iste'mol qiymati, natural xo'jalik nuqtai nazaridan o'rgangan. Dehqonchilikni uy xo'jaligi hayotining asosi, deb hisoblab, hunarmandchilikni dehqonchilikdan keyingi o'ringa qo'ygan. Uy xo'jaligida iste'moldan ortiqcha mahsulot qolishi kerak, shu orqaligina boyish mumkin, deb ko'rsatadi. Qul mehnati unumini oshirish uchun: a)jazolash; b)yaxshi muomala qilish, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, qullar o'rtasida musobaqani yo'lga qo'yish kerak, deydi. U birinchi bo'lib mehnat taqsimotining ijobiy jihatlarini asoslab bergan. Aristotel uy xo'jaligiga - bu, eng avvalo, dehqonchilikdagi kishilarning hamda hunarmandchilik va mayda savdo bilan band bo'lganlarning asosiy va sharaflil faoliyatidir, deb ta'rif beradi. Uning fikricha, insonning eng muhim ehtiyojlari mehnat omili orqali qondiriladi va shuning uchun davlat hunarmandlar va mayda dehqonlarni qo'llab-quvvatlashi kerak, deb hisoblaydi.

Biz uy xo'jaliklarini iqtisodiy maktablar tizimida ko'rib chiqsak, klassik nazariya namoyondasi A.Smit hamda D.Rikardonning fikrlariga ko'ra [1] jamiyat boyligini taqsimlanishi asosida uy xo'jaligini ko'rib chiqqanlar. Keynschilik maktabi asoschisi Dj.M.Keyns nazariyasida esa asosiy e'tibor iste'mol xarajati bilan jamg'arishning o'zgarishi tadqiq etilgan [2]. Dj.M.Keyns nazariyasining asosiy tomoni shundaki, uy xo'jaliklarining iste'mol xarajati bilan jamg'arishi o'zgarishini grafiklarda chuqur tahlil qilgan.

XX asrning 60-yillari o'rtalarida uy xo'jaligining yangi nazariyasi paydo bo'ldi (Garri Bekker, Kelvin Lankaster, Teoder Shuls), ular oila a'zolarining bandligini ta'minlashga inson kapitalini rivojlantirish orqali erishish mumkinligini ta'kidladilar. Amerikalik iqtisodchi Garri Bekker o'zining "Inson xulq-atvori: iqtisodiy yondashuv" nomli kitobida uy xo'jaligini o'ziga xos va juda aniq hisoblangan foyda keltiradigan kichik

zavod sifatida o'rganadi, oila tarkibi, daromadlarni oshirish imkoniyatlarini aniqlaydi [3].

Rossiyalik iqtisodchi olim A.N.Oleynikning fikricha, uy xo'jaligi inson kapitalini takror barpo etishning umumiy vazifalari, yashash joyi, byudjet va oila-qarindoshlik aloqalari bilan birlashgan insonlar guruhi hisoblanadi [4]. Boshqa iqtisodchi olim O.V.Mironenko uy xo'jaligini umumiy byudjet va yashash joyi bilan birlashgan, har qaysisi ishlab chiqarish omili sifatida mehnat ta'minotchisi bo'lgani holda bandlik maqomiga ega, shuningdek, ham tabiiy, ham tovar xususiyatiga ega bo'lishi mumkin bo'lgan iqtisodiy faoliyatda ishtirok etuvchi bir yoki bir necha shaxslar guruhi sifatida tadqiq etgan [5]. G.P.Juravleva uy xo'jaligini "inson kapitali"ning barpo bo'lishidagi roli bilan uzviy bog'laydi [6]. Iqtisodiyotning iste'mol sohasida faoliyat yurituvchi, bir yoki bir necha shaxsdan tarkib topishi mumkin bo'lgan iqtisodiy birlik. U "inson kapitali"ning barpo bo'lishi va takror barpo bo'lishini ta'minlaydi, mustaqil ravishda qarorlar qabul qiladi, bozor iqtisodiyotida ma'lum ishlab chiqarish omilining egasi va yetkazib beruvchisi hisoblanadi, shaxsiy ehtiyojlarini imkon qadar qondirishga (foydani oshirishga emas) intiladi degan fikrni ilgari surgan. O'zbekiston olimlaridan B.B.Berkinov va U.K.Axmedov uy xo'jaliklarining aktivlarga qo'shgan hissasini ekonometrik tahlil qilganlar [7]. Uy xo'jaliklarini makroiqtisodiy doiraviy aylanishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqqan iqtisodchi olim Sh.Dj.Badalov quyidagicha munosabat bildiradi: "Shu tariqa, uy xo'jaliklari firmalar bilan resurslar bozorida taklif tomonidan va mahsulotlar bozorida esa talab tomonidan turib, o'zaro aloqaga kirishadilar" [8].

U.A.Narmanov uy xo'jaligi oilaviy munosabatlarga asoslangan iqtisodiy subyekt bo'lib, uning iqtisodiy tizimda tutgan o'rni pirovard natijalar iste'molchisi, iqtisodiy resurslarning yetkazib beruvchisi va iqtisodiy ne'matlarning yaratuvchisi sifatidagi vazifasi bilan belgilanadi [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Uy xo'jaliklarining o'ziga xos xususiyatlari va aholi farovonligini oshirish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish va tahlil qilish qilishda analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil etish, jadval va grafiklar usullaridan foydalanildi, hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Dunyo miqiyosida uy xo'jaliklari nafaqat jamiyatning asosiy ijtimoiy bo'lagi, balki mamlakat iqtisodiy rivojlanishining

barqarorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida ham e'tirof etiladi. Uy xo'jaliklarining turmush darajasi, ularning iqtisodiy faolligi, ijtimoiy himoya tizimi bilan qamrab olinishi aholi farovonligining bevosita ko'rsatkichidir. Shu bois ko'plab rivojlangan davlatlar o'z strategiyalarida uy xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash va ularning turmush sifatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratmoqda.

Uy xo'jaliklari majmui iqtisodiyotning alohida sektoridan iborat bo'lib, unda: daromadlar yig'iladi hamda xarajatlar va jamg'armalar amalga oshiriladi; soliqlar to'lanadi; sog'liq

va ta'limga vaqt va pul investitsiyalari sarflanadi; moddiy va ma'naviy hayotiy boyliklar ishlab chiqariladi va iste'mol qilinadi; mehnat bozorida va uy xo'jaligida bandlik to'g'risida hukm chiqariladi; bolalarning tug'ilishi, keksa ota-onalar va nogironlarning qarindoshlari qaramog'i to'g'risida qarorlar qabul qilinadi.

Tadqiqot jarayonida o'rganilgan ma'lumotlarga asosan, uy xo'jaligining iqtisodiy funksiyalari quyidagilarni qamrab oladi (1 - rasm):



1- rasm. Uy xo'jaligining iqtisodiy funksiyalari [1]

Berilgan ma'lumotlarga ko'ra, uy xo'jaliklari birgalikda xo'jalik yuritish, iqtisodiy nafaol oila a'zolariga yordam berish, iste'mol byudjetini shakllantirish, talabni shakllantirish orqali ishlab chiqarish tarkibiga ta'sir qilish, investitsion salohiyatni yaratish, inson kapitalining shakllanishi va ishlab chiqarish sohasini ishlab chiqarish resurslari bilan ta'minlash kabi funksiyalarni bajaradi.

Demak, uy xo'jaligi uchun belgilovchi funktsiya inson kapitalini takror ishlab chiqarish (xarajatlarni qoplash va jamg'arish) funksiyasidir. "Inson kapitali" tushunchasi insonga xos bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar, tajribalar yig'indisini anglatadi, ularni amalga oshirish orqali shaxs o'zi va yaqinlari uchun moddiy sharoitlar yaratadi. Uy xo'jaligi byudjeti xarajatlari mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Oila o'z daromadidan foydalanib, tovar va xizmatlar bozorini shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlaydi.

Shuningdek, uy xo'jaliklari a'zolari o'z mablag'larini sarflab, turli ehtiyojlarni qondiradi. Bu ikki yo'l amalga oshiriladi, ya'ni:

1) tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun pul daromadlaridan foydalanish;

2) xo'jalikning ayrim a'zolarining o'z mehnat faoliyati hisobiga yuzaga keladigan tabiiy o'zini o'zi ta'minlash. Uy xo'jaligi a'zolari o'z mablag'larini sarflash orqali xilma-xil ehtiyojlarni qondiradi. Jumladan, aynan bu yo'l ikki shaklda namoyon bo'lishini, birinchidan pul daromadlaridan tovarlar va xizmatlar sotib olish uchun foydalanish va xo'jalik ayrim a'zolarining o'z mehnat faoliyati hisobiga sodir bo'ladigan natural o'z-o'zini ta'minlash bilan izohlash mumkin.

Uy xo'jaligi xarajatlari ikki xil yo'nalishga ajratilishi iqtisodiy adabiyotlarda o'z ifodasini topgan, xususan: joriy va kapital xarajatlar.

Unga ko'ra, joriy xarajatlarga nisbatan qisqa davr mobaynida foydalaniladigan oziq-ovqat tovarlari, nooziq-ovqat tovarlari (poyabzal, kiyim-kechak va shu kabilar) ni sotib olish xarajatlari, aholi tomonidan ma'lum bir davrada iste'mol qilinadigan to'lov xarajatlari (masalan, sartaroshxona, kir yuvish xonasi, tish shifokori xizmatlari) kiritilsa, kapital xarajatlar tarkibida yetarlicha uzoq vaqt oralig'ida foydalaniladigan nooziq-ovqat tovarlarini sotib olish xarajatlari (mebel, uy-joy, transport vositalarini sotib olish xarajatlari va boshqalar)ni, uy xo'jaligi a'zolari kamdan-kam hollarda iste'mol qiladigan

xizmatlar uchun xarajatlar va bu xizmatlarning natijasi, aksincha, ularga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va ularning uzoq vaqt oralig'idagi hayotini belgilaydi (ta'lim xarajatlari, tibbiy operatsiyalar, sayohat yo'llanmalari va boshqalar)ni asoslash mumkin.

Ma'lumki, oila byudjeti - oilaning ma'lum vaqt oralig'idagi (oy yoki yil) daromad va xarajatlari rejasi hisoblanadi. Oila byudjetining qo'shma va alohida turlari mavjud. Jumladan, qo'shma oilaviy byudjet - oila a'zolarining barcha daromadlari bir hamyonga jamlanib, undan oila ehtiyojlari uchun sarflanadigan byudjet turi;

alohida oila byudjeti - byudjetning bir turi bo'lib, unda har kim o'z hamyoniga (bankda hisob raqamiga) ega bo'ladi, har kim pulni o'z xohishiga ko'ra tasarruf etadi, umumiy xarajatlari (oziq-ovqat, yashash, bolalar) teng yoki oila a'zolarining daromad darajasiga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Bu ko'rinish ko'pincha xorijiy mamlakatlar tajribasida kuzatiladigan holat hisoblanadi.

Uy xo'jaliklari daromad manbalari - bu ma'lum bir davrda uy xo'jaliklarining ixtiyoriga kelib tushuvchi pul mablag'lari summalari 1-jadvalda asoslangan:

1-jadval

Uy xo'jaliklari daromad manbalarining shakllanishi [2]

Nº	KO'RSATKICH	TARKIBI
1	O'z daromadi	ish haqi; mukofot; firmaning ijtimoiy paketi; grant (olimlar va ijodiy xodimlar uchun); o'zini o'zi band qilishdan olingan daromadlar
2	Nafaqalar	ishsizlik, kasallik, homiladorlik va tug'ish bo'yicha ijtimoiy nafaqalar; pensiyalar (keksalar va nogironlar uchun); stipendiyalar (talabalar, aspirantlar va doktorantlar uchun); xayriya jamg'armalaridan yordam
3	Mulkdan olingan daromadlar	dividendlar (aksiyalardan olingan daromad); uy-joyini ijaraga berishdan olingan daromad; depozit bo'yicha foiz
4	Boshqa daromadlar	alimentlar; soliqlarni qaytarish; sovg'alar; ota-onalar, bolalar, er-xotinlar yordami; sovrinlar; meros

Uy xo'jaliklari xarajatlarning manbalari - bu uy xo'jaliklari tomonidan iste'molga, majburiy to'lovlarni amalga oshirishga va jamg'arishga yo'naltiriladigan pul mablag'lari sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni:

oilaviy kapitalni shakllantirish;

oziqlantirish;

transport;

shaxsiy xarajatlar;

bolalar uchun xarajatlar;

kommunal xizmatlar uchun xarajatlar;

xo'jalik ehtiyojlari uchun xarajatlar va boshqalar.


Fikrimizcha, agar inson biror sababga ko'ra ishlay olmasa va tirikchilik uchun mablag' topa olmasa, davlat unga ijtimoiy nafaqa to'laydi. Bundan tashqari, ijtimoiy nafaqa va imtiyozlar ham ijtimoiy rag'batlantirishning bir ko'rinishidir. Masalan, ko'p bolali oilalar, urush faxriylari nafaqa va imtiyozlarga ega. Yana bir bola tug'ilganligi yoki farzandlikka olinganligi uchun oila onalik kapitalini oladi va hokazo.

A.Marshall fikriga ko'ra, "inson xatti-harakati, uning hayotida xo'jalik faoliyatiga ko'proq kuchli va mustahkam ta'sir qiladigan undovchi motivlar" [3] mavjud. Bu motivlar ostida uning

fikriga ko'ra manfaatlar yotadi. Uy xo'jaliklari manfaatlari bir xil emas, ular turlanadi. Ammo bunga qaramay manfaatlar tizimini umumiy ko'rinishda olib ularni quyidagicha tasvirlash mumkin (2-Rasm.)

Uy xo'jaliklari faoliyati samaradorligini tahlil qilishda uy xo'jaligining samaradorligi o'zini o'zi keltirib chiqaruvchi ko'rsatkich emasligiga e'tibor qaratishimiz lozim, zero uy xo'jaligi faoliyatining samaradorligini oshirishga bir qator omillar va mavjud tartibga solish mexanizmining qay yo'sinda tashkil etilganligi ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida uy xo'jaliklari faoliyat ko'rsatishining samaradorligi bir tomondan, uy xo'jaliklari o'rtasidagi, ikkinchi tomondan esa - ishlab chiqarish omillaridan xo'jalikning o'zida oqilona foydalanish va ma'lum bir aniq shart-sharoitlarda mazkur omillarni bozorda samarali sotishni tashkil etish borasida bozor, davlat va korxonalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning umumiyli bilan aniqlanadi [5]. Uy xo'jaliklari faoliyatining umumiy samaradorligi xo'jalik faoliyatining natijalari bilan tashqi va ichki omillarning ta'sirini inobatga olgan holda amalga oshirilgan xarajatlar o'rtasidagi nisbati sifatida namoyon bo'ladi.



2-rasm. Uy xo'jaliklari manfaatlarining funksional shakllari [4]

Dunyo mamlakatlari orasida aniqlanadigan Better Life Index yoki eng yaxshi hayot indeksi - iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan reyting hisoblanadi. U turli mamlakatlardagi hayot sifatini odamlar farovonligi uchun muhim bo'lgan: salomatlik, daromad darajasi, ta'lim, bandlik, xavfsizlik va hayotni qulay va barqaror qiladigan boshqa sohalar asosida baholaydi.

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, daromad darajasi bo'yicha Lyuksemburg yetakchi, bu uning kichik, lekin iqtisodiyoti kuchli davlat ekanini bildiradi. AQSH va Shvetsariya ham yuqori daromadli mamlakatlar. Uy-joyning arzonligi va sifati bo'yicha AQSH birinchi o'rinda, demak u yerda keng va sifatli uylar nisbatan arzon. Avstraliya va Norvegiya ham bu borada yetakchi. Bandlik va mehnat sharoitlarida Islandiya oldinda - bu mamlakatda ishsizlik darajasi juda past va mehnat sharoitlari yaxshi. Ijtimoiy aloqalar mezonida ham Islandiya yetakchi, bu jamiyatdagi insonlar o'rtasidagi ishonch va qo'llab-quvvatlash kuchli ekanligini ko'rsatadi. Ta'limda Finlandiya yetakchilik qilmoqda, bu ularning mashhur kuchli ta'lim tizimini tasdiqlaydi. Avstraliya va Shvetsiya ham yuqori

o'rinlarda. Atrof-muhit jihatidan Shvetsiya birinchi, ya'ni u yerda ekologik holat yaxshi va tabiiy muhit asrab-avaylanadi. Siyosiy faollik va hukumatga ishonch mezonida Avstraliya birinchi - demak fuqarolar faol va hukumatga ishonadi. Salomatlikda Kanada yetakchi, demak u yerda sog'liqni saqlash tizimi yaxshi rivojlangan. Avstraliya va Shvetsariya ham yuqorida. Baxt va hayotdan mamnunlikda Finlandiya eng baxtli davlat sifatida ajralib turibdi. Xavfsizlikda Norvegiya oldinda - jinoyatchilik darajasi past va odamlar o'zlarini xotirjam his qilishadi. Ish va shaxsiy hayot balansida esa Italiya yetakchi - bu u yerda ish va dam olish orasidagi muvozanat yaxshi ekanini bildiradi. 3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, AQSH YaIM: \$27,36, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot: \$81630, YaIMning yillik o'sish sur'ati: 2,5%ni tashkil etib, AQSh iqtisodiyoti juda xilma-xillik va dinamizm bilan ajralib turadi. U texnologiyalar, moliya, ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash va xizmat ko'rsatish kabi bir qancha muhim sohalar tufayli rivojlanmoqda. Mamlakat innovatsiya va tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi kuchli iste'mol bozoriga, shuningdek, rivojlangan infratuzilma va qulay biznes muhitiga ega.

2-jadval

Better Life Index bo'yicha eng yaxshi mamlakatlar [6]

MEZON	1-O'RIN	2-O'RIN	3-O'RIN
Daromad darajasi	Lyuksemburg	AQSH	Shvetsariya
Uy-joyning arzonligi va sifati	AQSH	Avstraliya	Norvegiya
Bandlik darajasi va mehnat sharoitlari	Islandiya	Shvetsariya	Niderlandiya
Ijtimoiy aloqalar	Islandiya	Chexiya	Irlandiya
Ta'lim	Finlandiya	Avstraliya	Shvetsiya
Atrof-muhit	Shvetsiya	Finlandiya	Norvegiya
Fuqarolarning siyosiy hayotdagi faolligi va hukumatga ishonch darajasi	Avstraliya	Koreya	Yangi Zillandiya
Salomatlik	Kanada	Avstraliya	Shvetsariya
Baxt-saodat va hayotdan mamnunlik darajasi	Finlandiya	Islandiya	Daniya
Xavfsizlik	Norvegiya	Sloveniya	Lyuksemburg
Ish va shaxsiy hayot balans	Italiya	Daniya	Norvegiya

3-jadval

Rivojlangan mamlakatlar uy xo'jaliklarining YaIM dagi ulushi [7]

Davlatlar	YaIM, trln AQSH \$	Aholi jon boshiga YaIM, mln AQSH\$	2023 yil uy xo'jaliklarining YaIMdagi ulushi,%
AQSh	27,36	81 695 \$	73,6
Xitoy	17,66	12 040	62
Germaniya	4,46	52 730 \$	78,16
Yaponiya	4,21	33 810	68,1
Hindiston	3,57	2 500 \$	36,5
Buyuk Britaniya	3,34	58 906 \$	82,3
Fransiya	3,03	43 780 \$	65,5
Italiya	2,25	38 330 \$	57,15
Brazilya	2,17	11 350 \$	34,7
Kanada	2,14	52 730 \$	103

Ko'rib chiqishimiz lozim bo'lgan rivojlangan mamlakatlardan biri Germaniyadir. Ma'lumki, har qanday mamlakat aholisining hayot darajasi va sifati uning zamonaviy dunyodagi mavqeini belgilaydi. Mamlakat aholisining turmush darajasi ko'rsatkichi aynan shu iqtisodiy kategoriya bo'lib, u aholining turli xil moddiy tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini aks ettiradi va tavsiflaydi. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda Germaniyada fuqarolarga ijtimoiy-iqtisodiy xizmatlar ko'rsatishning yuqori darajasi kuzatilmoqda. Germaniya turmush darajasi bo'yicha boshqa mamlakatlarga nisbatan ancha yuqori mavqega ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, uy xo'jaliklari birgalikda xo'jalik yuritish, iqtisodiy nafaol oila a'zolariga yordam berish, iste'mol byudjetini shakllantirish, talabni shakllantirish orqali ishlab chiqarish tarkibiga ta'sir qilish, investitsion salohiyatni yaratish, inson kapitalining shakllanishi va ishlab chiqarish sohasini ishlab chiqarish resurslari bilan ta'minlash kabi funksiyalarni bajaradi. Bundan tashqari, uy xo'jaliklarining har bir xatti-harakatlarining ortida albatta ma'lum bir iqtisodiy manfaat yotadi va ularning funksional shakllari quyidagilardan iboratdi: mulk sohibi sifatida, daromad oluvchi sifatida, iste'molchi sifatida, inson kapitalini yaratuvchi sifatida. Xususan biz uy xo'jaliklari faolligini ta'minlash asosida aholi farovonligini oshirish uchun xalqaro rivojlangan davlatlar tajribalarini o'rganib, tahlil qilishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Germaniya tajribasida uy xo'jaliklari energiya tejamkorligi, ekologik tozaligi va "yashil iqtisodiyot" prinsiplariga asoslangan. Ular kichik biznes shaklida (fermer xo'jaliklari, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish) faol bo'lib, davlat tomonidan subsidiyalar, soliq imtiyozlari orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Uy xo'jaliklarini kichik tadbirkorlikka jalb etish: Germaniya tajribasi asosida, O'zbekistonda uy sharoitida hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish, dehqonchilikni rivojlantirish uchun kredit, grant va soliq imtiyozlari tizimini kengaytirish zarur. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish: Uy xo'jaliklari byudjetini to'g'ri yuritish, investitsiya qilish va jamg'arishni o'rgatish bo'yicha Germaniya tajribasini inobatga olib, maxsus o'quv dasturlari joriy etilishi lozim.

Ayollar va yoshlarni faol jalb etish: Uy xo'jaliklarining iqtisodiy faolligini oshirishda ayollar va yoshlarni kichik biznesga jalb etish uchun o'quv markazlari, maslahat xizmatlari va subsidiyalar tizimini yaratish kerak.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Safarova Zulfizar Zafar kizi Qarshi Davlat Texnika

Unverseti magstranti / Сафарова Зулфизар Зафар кизи магистрант Каршинского государственного технического университета / Safarova Zulfizar Zafar kizi master's student of the Karshi State Technical University

► zulfizarsafarova25@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0007-1540-8374>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Ядгаров Я.С. История экономических учений: учебник. – М.: ИНФРА-М, 2018. – 480 с.
- [2]. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: ЭКСМО, 2007. – 960с.
- [3]. U.A.Narmanov. Uy xo'jaligida bandlikni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati.- Toshkent. 2023.-12b.
- [4]. Олейник А. Институциональная экономика: Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 704 с
- [5]. Мироненко О.В. Домашние хозяйства в системе социально – трудовых отношений. Автореферат дисс. к.э.н. – Хабаровск, 2008. – 20 с.
- [6]. Поведение домохозяйства в рыночной экономике. Kondratyev. Professorjournal. ru/c/document_library/get_file?p_l_id=520889.
- [7]. Беркинов Б.Б., Ахмедов У.К. Источники формирования доходов и прогнозирование инвестиций в основной капитал сельских домохозяйств Узбекистана. // Экономика, организация и управление предприятиями, отраслями. – М., 2015.
- [8]. Badalov Sh.Dj. Milliy iqtisodiyotda uy xo'jaliklarining iqtisodiy funksiyalari. - T.: —"Iqtisodiyot", 2013. –B.29.
- [9]. U.A.Narmanov. Uy xo'jaligida bandlikni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati.- Toshkent. 2023.-13b.
- [10]. Badalov Sh.Dj. Milliy iqtisodiyotda uy xo'jaliklarining iqtisodiy funksiyalari. - T.: —"Iqtisodiyot", 2013. –B.29.
- [11]. SH.A.Turobov & S.SH.To'rayeva. AYOLLAR MEHNATIDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SOCIAL SCIENCES.
- [12]. N.A.Ochilova, Z.Z.Safarova. UY XO'JALIKLARI FAOLIGINI TA'MINLASH ASOSIDA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MOHIYATI. INNOVATION IQTISODIYOT ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL.

Menejment va
marketing

Менеджмент и
маркетинг

Management and
marketing